

VOL. 1 NO. 4 (2022)

YOUNG RESEARCHER  
МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ

**YOSH  
TADQIQOTCHI**  
ILMIY ELEKTRON JURNALI



"GLOBAL INNOVATORS  
TA-2021" G'OLIBI


ЗБОЯЕВ

YOSH TADQIQOTCHI JURNALI



# YOSH TADQIQOTCHI JURNALI

Volume 1 Issue 4 May 2022



TAHRIRIYAT

[www.2ndSun.uz](http://www.2ndSun.uz)

Qo'qon – 2022

SCIENTIFIC JOURNAL IMPACT FACTOR 4.7

# YOSH TADQIQOTCHI JURNALI

## XALQ, MILLAT, QAVM VA URUG' NOMIGA ASOSLANGAN TOPONIMLAR (BUXORO VILOYATI VOBKENT TUMANI MISOLIDA)

Xayrullayeva Marjona Omon qizi

Buxoro davlat universiteti, O'zbek tilshunoslik kafedrasи o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590811>

**ANNOTATSIYA:** Xalq, millat, qavm va urug', qabila nomlari etnonim hisoblanadi. Etnonimlar har bir davrda ma'lum bir hududda yashab kelayotgan etnik guruhlar haqida ma'lumot beruvchi lisoniy birlik sanaladi. Etnotoponimlar esa elat va qavmlar yashab kelgan o'rinalar, hududlarni muayyanlashtirish va aniqlashga xizmat qiladi. Shuning uchun etnopenonimlarni to'plash, tadqiq etish nafaqat tilshunoslik, tarix, etnografiya, arxeologiya, geografiya sohalari uchun qimmatli ma'lumotlar beribgina qolmay, madaniyat va ma'naviyatimizning turli yo'nalishlari doirasida keng qamrovli izlanishlar olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**ANNOTATION:** The names of people, nation, tribe and clan are tribal names. Ethnonyms are linguistic units that provide information about the ethnic groups living in a particular area in each period. Ethnotoponyms are used to identify and identify places and territories inhabited by peoples and nations. Therefore, the collection and study of ethnonyms not only provides valuable information in the fields of linguistics, history, ethnography, archeology, geography, but also plays an important role in conducting comprehensive research in various areas of our culture and spirituality.

**Kalit so'zlar:** Toponim, etnonim, etnografiya, arxeologiya, elat, qavm, etnonomik negiz.

O'zbek nomshunosligida ko'pgina ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Jumladan, K.Marqaev Janubiy O'zbekiston hududi materiallari asosida o'zbek tili etnonimlarining lisoniy tadqiqini amalga oshirdi<sup>774</sup>. A.Otajonovaning "Xorazm etnopenonimlari va ularning lug'aviy asoslari"<sup>775</sup>,

<sup>774</sup> Марқаев К. Ўзбек тили этонимларининг лисоний тадқики. Филол.фанл. номз. диссер. автореф. –Т.:2007. -26 б.

<sup>775</sup> Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. – Т.: Фан, 1997. – 129 б.



N.Oxunovning maqolasi<sup>776</sup>, A.Turobovning "Samarqand viloyati etnonim va etnooykonimlarining tahlili"<sup>777</sup>, A.Ergashevning etnotoponimlarning areal-onomastik tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqoti<sup>778</sup> va boshqa tadqiqot ishlarida ushbu sohaning yanada rivoj topib borayotganini ko'rish mumkin.

Etnotoponimlar ko'p asrlar mobaynida tabiiy holda yuzaga kelgan nomlardir. Ularning ijodkori, yaratuvchisi esa oddiy xalq hisoblanadi. Etnotoponimlar, bir tomonidan, ma'lum obyektning atoqli oti, juda qadimiy so'z bo'lsa, ikkinchi tomonidan, xalqning tarixini aniqlashtirishga yordam beradi. Etnotoponimlar sifatida bugungi kunda saqlanib kelayotgan millat nomlari xalqlarning moddiy va madaniy aloqalarini ham o'zida aks ettiradi. Millat nomlari asosida shakllangan etnotoponimlar tarixiy ma'lumot tashishdan tashqari, mahalliy millat tiliga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Etnonimika sohasining hozirga qadar hal etilmagan va munozarali masalalari bor. Bularidan biri etnonimlar atoqlimi yoki turdosh otmi ekanligi masalasidir. Olimlar bu haqda turlicha fikr bildiradilar. Taniqli toponomist V.A.Nikonov fikricha, hozircha bu masalada bir xil fikrga kelish qiyin, chunki: «Bizda atoqli ot nazariyasi hanuz ishlab chiqilmagan, atoqli hamda turdosh otlar o'rtasidagi chegara aniqlanmagan ekan, etnonimlar bu meniyalarning qaysi biriga mansubligi haqida bahs yuritish foydasizdir»<sup>779</sup>.

A.V.Superanskaya etnonimlarni «Onomastikaga kirmaydigan leksik kategoriylar»<sup>780</sup> sarlavhasi ostida sharhlaydi. Atoqli otlar oldiga qo'yiluvchi lingvistik belgilari nuqtayi nazaridan etnonimlarni atoqli otlar kategoriyasiga kiritib bo'lmaydi. Lekin etnonimlar atoqli ot bo'lmasa-da, atoqli otlar bilan, ayniqsa, antroponimlar va toponimlar bilan aloqador leksik guruhlardir. Shu

<sup>776</sup> Ахунов Н. Этнотопонимы – важный исторический источник // Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана XV-XIX вв. – Ташкент: Фан, 1987. - С. 85-98.

<sup>777</sup> Туров А. Самарканд вилояти этноойконимларининг таҳлили. Филол. фанл. номз. диссер. –Т., 1999. 130 б.

<sup>778</sup> Эргашев А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқики. Филол. фанл. номз...дис.автореф. –Т., 2012. - 42 б.

<sup>779</sup> Никонов В.А. Введение в топонимику. –М., Наука, 1965. -С. 22.

<sup>780</sup> Суперанская А.В. Апеллятив – онома //Имя нарицательное и собственное. –М., Наука, 1978. –С.8.

sababli ham tilda etnonimdan yasalgan toponim va antroponomilar, ayniqsa, geografik nomlar keng tarqalgan.

Etnotoponomilar etnonimlardan yasalgan toponimlarga bo'lib qolmasdan, o'z tarkibida etnonimiyaning xarakterli va boy faktik materiallarni mujassamlashtiruvchi lingvistik manba sifatida ham qimmatlidir. Ularni o'rganish, bunday nomlar asosida yotgan leksik birliklarning mohiyatini to'g'ri belgilash ko'p jihatdan xalq tilidagi etnonim materiallarning etarli ravishda ilmiy tadqiq etilganligi bilan bog'liqdir.


Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining urug' va qabilalarni, ularning shahobcha va tarmoqlarini ilmiy o'rganishda ko'plab mashhur rus tarixchi va tilshunoslarning asarlaridagi bu masalaga oid fikr va mulohazalar muayyan qimmatga ega. Mana shu ma'noda Samarqand viloyati aholisi etnonimiyasi yuzasidan maxsus tadqiqot ishlari olib borgan professor X. Doniyorov va Farg'ona vohasi toponimiyasidagi etnonimlarni S.S.Gubaeva<sup>781</sup> va S.Qorayevning izlanishlari alohida ahamiyatga egadir.

Etnonimlar atoqli ot (toponim) vazifasiga ko'chgach, u ma'no va funksiyasiga ko'ra o'zgaradi. Avval etnonim sifatida kishilarning ma'lum ijtimoiy tarixiy guruhi, ya'ni etnik guruhni anglatgan bo'lsa, endi u yakka tushuncha bilan bog'liq bo'lib, yakka obyektning nomiga aylanadi. Demak, bunday nomlarni etnotoponomilar deb yuritish nomning asosida yotgan etnonimlarning leksik va grammatik strukturasini tekshirishdan iborat emas, balki etnonimdan yasalgan toponimning atoqli otning lingvistik belgilarini aniqlashdan iboratdir. Etnik nomlar toponimlarga urug', qabila, elat, xalq, millatlarning nomlari kiradi. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida etnonimlardan yasalgan toponimlar keng tarqalgan va bunday nomlar «Etnik belgilar asosida yasalgan toponimlar», «etnotoponomilar» deb yuritiladi.

O'zbek toponimiyasi bo'yicha yoqlangan ishlarning barchasida o'rganilayotgan hududda uchraydigan etnotoponomilar tahlil qilindi.

<sup>781</sup> Губаева С.С. Этническая история населения Фергана конца XIX - начала XX в. (по данным топонимии). - Ташкент. "Фан", 1983.-105 с. Библиогр. - С.92-104 (293 назв.).

# YOSH TADQIQOTCHI JURNALI



O'zbek toponimikasida etnotoponimlar maxsus tadqiq qilingan ishlar ham yuzaga kelgan. Biz bu o'rinda A.Otajonovaning Xorazm etnotoponimlarga, A.Turobovning Samarkand viloyati etnooykonimlariga bag'ishlangan ishlarini ko'zda tutmoqdamiz. Har ikkala tadqiqotda o'rganilayotgan hudud toponimiyasidagi etnonimik negizlar asosida yasalgan nomlar atroficha tahlil qilingan.

Etnotoponimlarni ularning etnonimik negiziga (toponegiziga) ko'ra ikkiga bo'lish mumkin:

- Negizda xalq, elat yoki millat nomi yotgan etnotoponimlar quyidagilar:


<i>Arabsaroy</i>	<i>Miyona Arabxona</i>	<i>Tojiklar</i>
<i>Arabxona</i>	<i>Poyon Arabxona</i>	<i>O'zbakon</i>
<i>Boloarabxona</i>	<i>O'rta Arablar</i>	<i>Totor</i>
<i>Katta Arablar</i>	<i>Toshloq Arabxona</i>	<i>Sharqiy O'zbekon</i>
<i>Kichik Arablar</i>	<i>Qirg'izon</i>	

- Negizda urug', qabila va ularning mayda shahobchalari nomi yotgan etnotoponimlar:

<i>Bahrinobod</i>	<i>Qipchoq Chorrabot</i>	<i>Yuqori Qatag'an</i>
<i>Katta Saroy</i>	<i>Qatag'an</i>	<i>Yuqori Qipchoq</i>
<i>Kichik Saroy</i>	<i>Quyi Nayman</i>	<i>Xargo'sh Nayman</i>
<i>Mavri</i>	<i>Qo'ng'irot</i>	<i>O'bakulolon</i>
<i>Nayman</i>	<i>Sharqiy Qatag'on</i>	
<i>Qipchoq</i>	<i>Yuqori Saroy</i>	

Joy nomining etnonimidan shakllanganligi, ya'ni nom negizida etnik leksika yotganini aniqlash ba'zan qiyinchilik tug'diradi. Mana shunday hollarda toponimning tarkibidagi ba'zi ko'rsatgichlarga e'tibor berish lozim bo'ladi. Ko'pincha, etnonim tarkibida -li, -chi, -lar, -on, -yon qo'shimchalar uchraydi.

Vobkent tuman etnotoponimlarning ko'pchiligin tarkibida -xona, -on, -lar qo'shimchalari mavjud nomlar tashkil qiladi. Ko'pchilik tushunchasini ifoda etuvchi ushbu tojikcha affiks



o'zbekcha -lar, qo'shimchasiga to'g'ri keladi: *Mavrilar, Katta Arablar, Kichik Arablar, O'rta Arablar, Tojiklar*.

Vobkent tumanida -on qo'shimchali etnotoponimlar quyidagilar: *Sharqiy O'zbekon, Qirg'izon, O'bakulolon*

Tumandagi ayrim etnotoponimlar qo'shma tarkibli bo'lib, ular ikki asosdan tashkil topgan. Bular jumlasiga quydagilarni kiritish mumkin: *Arabsaroy, Miyona Arabxona, Poyon Arabxona, Boloarabxona, O'rta Arablar, Katta Arablar, Kichik Arablar, Toshloq Arabxona, Sharqiy O'zbekon, Bahrinobod, Qipchoq Chorrabot, Yuqori Qatag'an, Katta Saroy, Yuqori Qipchoq, Kichik Saroy, Quyi Nayman, Xargo'sh Nayman, O'ba kulolon, Sharqiy Qatag'on, Yuqori Saroy* kabi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, etnotoponimlarning ma'nosini talqin etish borasida ancha munozarali tomonlar bor. Ba'zi ishlarda etnotoponimning (toponimning) ma'no va etimologiyasi deb, uning negizida yotgan etnonimning ma'no va etimologiyasi talqin qilinadi. Bunga qo'shilish qiyin. Aslida, etnotoponimlarning ma'nosи soddadir, ya'ni har qanday etnotoponim o'zi mansub bo'lgan hududda o'tishda etnonimda ifodalangan etnik guruh yashagani yoki ularning avlodи hozirda yashayotgani haqida darak beradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. – Самарқанд: СамдЧТИ нашри, 2005. – Б.63-65.
2. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Т.: Наврўз, 2017. – Б.8.
3. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли лугати (Ўзбекистоннинг жанубий районлари). – Т.: Ўқитувчи, 1988. – 135 б.
4. Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли лугати. – Т.: Ўқитувчи Дўсимов, 1977. – Б.48

# YOSH TADQIQOTCHI JURNALI



112.	Nozima Ulug'ova Baxtiyorovna. (2022). MUHSIN QODIROVNING TEATR SAN'ATIGA OID QO'LLANMALARI.	825-829
113.	Ibroximov Nodirbek Maximjon o'g'li. (2022). YOSHLARNING IJTIMOIY TARMOQDAN FOYDALANISHI, UNING SALBIY VA IJOBIIY OQIBATLARI.	830-833
114.	Xayrullayeva Marjona. (2022). XALQ, MILLAT, QAVM VA URUG' NOMIGA ASOSLANGAN TOPONIMLAR (BUXORO VILOYATI VOBKENT TUMANI MISOLIDA).	835-839
115.	Baxodirova Shaxlo. (2022). ABDULLA QODIRIYNING DIALEKTOLOGIYAGA OID QARASHLARI.	840-844
116.	Sulaymonov Davron, & Mirzayeva Faxriya. (2022). DASTURLASHNI O'RGANISH METODLARI, YO'LLARI VA O'RGANISH MANBALARI. DASTURLASHNI BEPUL, ONLAYN YOKI OFLAYN O'RGANISH.	845-853
117.	Aripova Mastura, Shamatov Sirojiddin, & Muhamadjonova Mohina. (2022). TECHNOLOGY OF EXTRACTION OF IRON OXIDE FROM IRON-CONTAINING WASTE.	854-861
118.	Allanov Didar, Ro'zmetov Xursand, & Kurbanniyyazov Rashidbek. (2022). STEPS FOR DEVELOPMENT OF LEARNING SKILLS.	862-869
119.	Jurayeva Gulshanoy, & Abdihalimova G'oliba. (2022). MATEMATIKANI O'QITISHDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH.	870-877

942